

**NAVOIY VILOYATI NUROTA ETNOMADANIY MUHITIDA AN'ANAVIY
KASHTACHILIK SAN'ATI TARIXI, HUNARMANDCHILIKNING TAROVATI**

Shaxzoda G‘opporova

Madaniyatshunoslik va nomoddiy madaniy meros ilmiy-tadqiqot instituti,
nomoddiy madaniy merosni ilmiy- tadqiq etish bo‘limi
kichik ilmiy xodim

Annotatsiya: Ushbu maqolada nomoddiy madaniy merosning hunarmandchilik va amaliy bezak yo‘nalishida “Navoiy viloyati Nurota etnomadaniy muhitida an’anaviy kashtachilik san’ati tarixi, hunarmandchilikning tarovati” haqida fikr va mulohazalar yuritilgan.

Аннотация: В данной статье представлены мысли и мнения об «истории традиционного искусства вышивки, новизне ремесел в этнокультурной среде Нуроты Навоийской области» в направлении ремесел и практического оформления нематериального культурного наследия.

Annotation: In this article, there are thoughts and opinions about "the history of traditional embroidery art, the freshness of handicrafts in the ethnocultural environment of Nurota, Navoi region" in the direction of handicrafts and practical decoration of intangible cultural heritage.

Kalit so‘zlar: (nomoddiy madaniy meros, san’at, etnomadaniy muhit, an’anaviy hunarmandchilik, intellektual, oq fotiha)

Ключевые слова: (нематериальное культурное наследие, искусство, этнокультурная среда, традиционные ремесла, интеллектуальное, белое благословение)

Key words: (intangible cultural heritage, art, ethnocultural environment, traditional crafts, intellectual, white blessing)

“Biz uchun dolzarbligini va ahamiyatini hech qachon yo‘qotmaydigan masala bu farzandlarimizni mustaqil fikrli, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam insonlar etib tarbiyalash vazifasidir”. Prezidentimiz Sh. Mirziyoevning yuqorida so‘zları bizning nomoddiy madaniy merosimizni o‘rganish va uni targ‘ib etishda, saqlashga hamda san’atning amaliy bezak qo‘lda ishlangan hunarmandchilik turi san’atiga bevosita e’tibor qaratilayotganligi sababli halq amaliy bezak san’atining nomoddiy madaniy merosimizni o‘rganishga alohida e’tibor qaratish zarur ekanligini ta’kidlaganlar.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25 dekabrdagi PQ-405-son qarorining 1-ilovasi, Nomoddiy madaniy merosning alohida numunalarini ilmiy-amaliy asosda kompleks rivojlantirish bo‘yicha bir qancha topshiriqlar xududiy o‘rganishlar chora-tadbirlar rejasi asosida belgilab berilgan.

Unga ko‘ra Nomoddiy madaniy merosni asrash avaylash saqlovchilarini rag‘batlantirish va ular bilan birgalikda ustoz shogird an’analarini yo‘lga qo‘yish bo‘yicha bir qancha chora-tadbirlar rejasi ishlab chiqilgan.

Bunda hududiy madaniy muhitlarga tegishli bo‘lgan qadimiy nomoddiy madaniy merosimizni o‘rganish va targ‘ib etish, o‘z holatida kelajak avlodga yetkazish borasida ham bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda.

Ma'lumki, mustaqillik yillarda mamlakatimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohatlar samarasida nomoddiy madaniy merosimizni o'rganish, uning milliy va mahalliy ro'yxatini tuzish, etnomadaniy muhitlarga xosligini targ'ib etish ishlari yo'lga qo'yildi.

Ajdodlarimizdan qolgan boy merosimizni asrab-avaylash, qadimiy yodgorliklarni, obidalarni ta'mirlash, nomoddiy madaniy merosimizni saqlash davlat siyosatining ajralmas qismiga aylandi.

O'zbek xalqining madaniy tarixiy intellektual merosini asrash, boyitish, yanada ko'paytirish masalalariga bo'lgan e'tibori tufayli yurtimizda amaliy san'at va halq badiiy hunarmandchiligi, nomoddiy madaniy meros targ'iboti, va uni saqlash izchil rivojlanib bormoqda.

Halqimizning tabiiy iste'dodi va katta mehnati tufayli paydo bo'lgan ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan bebahvo va noyob san'at asarlarining namunalari o'zbek halqining jahon madaniyatiga qo'shgan beminnat hissasi desak mubolag'a bo'lmaydi. Ota-bobolarimizdan meros boqiy qadriyatlarning avloddan-avlodga o'tib halqimizning turmush tarziga hamohang ravishda rivoj topayotganligini nomoddiy madaniy merosimizning milliy hunarmandchilik ishlarida ko'rishimiz mumkin.

Navoiy viloyatining har bir hududi o'ziga xos a'nanalariga va hunarmandchiligiga hamda yo'nalishlariga ega. Masalan Xatirchi tumani sandiqsozlik, beshikchilik, temirchilik bilan shug'ullanishsa Qiziltepa tumani aholisi esa asosan vaqtini zardo'zlik va to'quvchilik bilan o'tkazadi. Ko'hna Karmana va Nurota tumanlari milliy hunarmandchilik markazlaridan hisoblanadi. Bu hududlarda uzoq asrlik an'analarni davom ettirgan holda, kulolchilik, tandirsozlik, etikdo'zlik, gilamdo'zlik, kashtado'zlik va do'ppido'zlikni uchratamiz. Uchquduq, Tomdi, Konimex tumanlarining esa qozoq qoraqalpoq milliy hunarmandchilik ishlaridan biri hisoblangan gilamdo'zlik, kigiz to'qish sevimli mashg'ulotlaridan biri sanaladi.

O'zbek hunarmandchiliginining keyingi yillarda ayniqsa, qayta tiklanib, rivojiana boshlagan badiiy-amaliy san'at sohalaridan kashtado'zlik uzoq tarixiy an'analarga ega. O'zbek milliy kashtachiliginining yorqin namunalari Yaponiya, Koreya, AQSh, Fransiya, Italiya va boshqa mamlakatlar muzeylarining ko'rgazma zallarida namoyish qilinayotganligi hamda doimiy eksponatlarga aylanib qolganligi ham mazkur nomoddiy madaniy merosga xos hunarmandchilikning bardavom ekanlididan dalolat beradi. Shuningdek, nozik did va mahorat bilan qo'lda tikilgan an'anaviy kashtachilik san'ati namunalaridan Navoiy viloyatining tarixiy-o'lkashunoslik muzeyining zahirasi hamda ekspozitsiya zallarida saqlanib kelinmoqda. Muzeyda 150 ga yaqin turli xil davrlarga tegishli kashtachilik san'atining durdonalari saqlanib kelinadi. Bu yerda asosan Nurota kashtachilik maktabining XIX-XX asrlarga tegishli bo'lgan har xil turdag'i kashtachilik san'ati namunalarini tashkil etadi.

Milliy kashtachilik halq amaliy san'atining eng qadimiy turlaridan bo'lib, bu amaliy qo'l bezagi san'ati hunari ma'lum tarixiy davrlarda kishilarning o'z uyi, turmushini chiroli qilish istagi tufayli yuzaga kelib bizgacha saqlangandir. O'sha davrlarda ham ayollar hozirgidek go'zallikga intiluvchan, har bir rangning tovlanishidan tarovatidan bir kashfiyot yaratuvchi bo'lishganligi bugun o'z isbotini topdi. Ular uylarida o'tirib uy-ro'zg'or ishlari va bola tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lishgan. Bo'sh vaqtlarida esa qo'l amaliy bezagi san'atida matoga toza ipak toladan olingan tabiiy rangli iplar yordamida jilo beruvchi gullar chizib kashta tikish bilan shug'ullanishgan.

Qadimdan kashtachilik san'atining maktablari markazi Nurota, Buxoro, Samarqand, Shahrisabz, Toshkent, Surxondaryo, va Farg'ona vodiysining tumanlari hisoblangan. Kashta asosan qizlarni katta hayotga kuzatish, turmushga chiqarishga tayyorlash vositasi bo'lib, u juda katta tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi. Avvalo oilada qizlarni mehnatga, sog'lom turmush tarzini shakillantirishga, go'zal milliy qadriyat va urf-odatlarga oshno etib tarbiyalashda o'z ifodasini topadi. Shuningdek, qizlar tarbiyasida ularni bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tishini tashkil etishda kashtachilik san'ati milliy qadriyat sifatida hizmat qiladi. Azaliy udumlarga ko'ra qizlarning

birinchi tikgan kashtalari suvgaga oqizilarkan va ikkinchi ishlari esa qariyalarga berilib ulardan oq fotiha olinarkan. Shuningdek, qizlar tomonidan tikilgan dastro‘molchalar ularning kelinlik seplariga qo‘silib berilarkan. Yana bir qiziq tomoni shundaki, momolarimiz tikgan kashtaning ozgina qismi tikilmasdan atayin qoldirilgan, bunga sabab, “Farzandlarimiz biz boshlagan ishlarni davom ettirib, qiziqishi ortsin va kelajakda qimmatli san’atimizni avlodlarimizga yetkazsin”, degan maqsadni ko‘zlashgan. Ushbu urf-odatlарimiz ham o‘zbek halqining bebaho qadriyatlaridan biridir. Momolarimizning bizgacha asrlar osha rivojlanib, milliy meros bo‘lib kelayotgan ko‘hna madaniyati beshigi sanalgan an’analari o‘sib kelayotgan yosh avlodga milliy hunarmandchiligidan tarixini o‘rgatadi. Ushbu qadriyatlarni nomoddiy madaniy merosimizni asrash avaylash, saqlash, va kelajakda yetkazuvchilarini qadrlash kabi ishlarni yoshlar ongiga singdirib borish eng oliy maqsadimiz hisoblanadi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o‘rganish va targ‘ib qilishni rivojlantirishga oid qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-405-sonli qarori.
- 2.O‘zbekiston san’ati. (1991-2001 yillar) Toshkent “Sharq” 2001 yil
3. I.Jabborov. O‘zbek halq etnografiyasi.Toshkent. “O‘qituvchi” 1994 yil